

Buzuq til havosi

Birinchi maqola

Men vaqti-vaqti bilan lug‘at varaqlashni xush ko‘raman, eng yaxshi ko‘rganim ellik to‘qqizinchi yili chiqqan “O‘zbekcha-ruscha lug‘at” edi, uni roman yo qissa o‘qigandek berilib o‘qiyman. So‘zlar ohanrabodek o‘ziga tortadi. Ellik yil oldin odamlar qanaqa gaplashgan, tilimizning ahvoli qanday bo‘lgan, buguni bilan solishtirganda nima o‘zgarishlari bor – lug‘atni o‘qib bu haqda ancha tasavvur olsa bo‘ladi. Tilimizning yarim asr ilgarigacha manzarasi bugunni ham yoritib, nimalar qilishimiz zarurligini ham ta’kidlab turadi. Mazkur lug‘atda qadimdan kelayotgan beqiyos gavharlar bilan birga davr, mafkura taqozosi bilan to‘kilgan shag‘al toshlarigacha aks etgan. Unda ba’zi so‘zlar bor, ma’no teranligi, ifoda tovlanishlari odamni hayratga soladi, lekin bugunga kelib tasarrufdan chiqib ketgan, agar ham tarjima-parjimada ishlatilib qolmasa, qo‘llanilmaydi; ayrim ibora yo atamalar borki, tilimiz tiynatiga yot, sun’iy ko‘chirma, lekin ko‘p foydalanilgani uchun quloqqa quyilib, qo‘llash odatga aylanib, avom tildan, keyin lug‘atdan ham joy olib qolgan, endi chiqib ketishi juda qiyin.

Sho‘ro davrida til rivoji turg‘unlikda kechdi, ha, rivojning o‘zi ham turg‘un edi. Shu turg‘unlikni davrning lug‘atida yaqqol ko‘rasiz. Bugun o‘qiganda, lug‘at ham mafkura quroliga aylanganiga taajjublanasiz. «Million yillar o‘tganda ham, toshga yo‘nilgan xatlar o‘chganda ham, Lenin kishilarning ko‘nglidan o‘chmaydi» (O‘zb-ruscha lug‘at. 59- yil. 594- bet). Bir vaqtlar bu gaplar hikmatdek o‘qilgan, bugun esa unga yosh bola ham ishonmaydi, to‘g‘rirog‘i, bilmaydi. Siyosat ekan-da, nima deysiz, “barqarorlik” so‘ziga misol tarzida “sovet so‘mining barqarorligi” deb misol keltirilgan, bugun g‘ashingiz keladi.

Har holda, oqar suvni tinitib ichish zarur bo‘lganidek, lug‘atni ham mafkura loyqasini cho‘kdirib o‘qiysiz, unda zamon quyqasi bisyor. Sho‘ro davri isqotiga aylangan bo‘lsa-da, avom tilining mag‘z-mag‘ziga singib, hali-hanuz urfda bo‘lib kelayotgan yot so‘z, so‘z birikmalari, atama, ibora va tushunchalar son-mingta.

Tushuncha deganim shuki, bir narsa yoki hodisani, masalan, ruscha eshitsangiz, siz ham uni ruscha ishlatsangiz, u haqdagi tushuncha ham ruscha bo‘ladi-da. Ayniqsa muqobili bo‘lmasa. “Pomidor” deb ko‘ring-da, o‘ylang: qayoqdandir chetdan kelgani mudom esingizda turadi, uni hatto “pamildori” desangiz ham o‘zbekchalashmaydi. Yassiomburni “plaskagubsi” (“ploskogubсы”) deb ketdik, asli o‘z tilimizda qanaqaligi xayolimizga ham kelmaydi, o‘zbekcha o‘ylashga intilib, ruscha fikrlaymiz. Mixni tishlab sug‘uradigani Samarqand tomonlarda “kampirog‘iz” deyiladi, juda topilgan o‘xshatma, ikkinchidan, bu xil ombur vagoni bilan Moskovdan keltirilgan bo‘lsa-da, xuddi o‘zimizning temirchilar yasagandek jiringlaydi, lekin adabiy tilda qo‘llashga chekkamiz tirishadi: qishloqi so‘z-da. Qashqadaryoda uning “tishlog‘ich” istilohi bor, bu ham o‘sha ma‘lum hududlardagina aytiladi.

O‘tgan asr o‘rtalaridagi lug‘atning til manzarasi bugungi kundagi muammolarni, aytish mumkinki, til ekologiyasi dolzarbligini, ya‘ni beparvolik, bepisandlik, e‘tiborsizlik, ko‘p hollarda esa savodsizlik tufayli guftugo‘ zabonimizning buzilishi muammolarni uqtirib turadi. Misollar ko‘lami, tabiiyki, millionlab odam tasarruf etgani bois nihoyatda keng.

Bir yozuvchining asarida to‘g‘onni “damba” deb yozganini o‘qidim; hayotda shunday, xalqdan olingan, qahramonlari shunday deydi, avom tilida ham, adabiy tilda ham asli bu “dam” – suvni to‘sib, damlaydigan joy, bu so‘z rus tiliga “damba” bo‘lib ko‘chib, yana o‘zimizga qaytib kelgan, endi ruscha bo‘lib. Yaqin-yaqingacha G‘allaoroldagi temir yo‘l bekati “Bogarniy” deyilardi. Bolaligimdan bilaman, odamlar ham bu bekatni “Bogarniy” deb kelgan. Tubini surishtirsangiz, bu so‘z ham asli o‘zimizniki: “bahorigi”, “bahorgi”, “bahorikor”dan. “Bogарные zemli”, “Bogарные sorta” – G‘allaorolning lalmi-bahorikor yerlaridan g‘alla olinadi, rasmiy yozishma, hukumat topshiriqlarining ruscha bo‘lgani bu topshiriqlarni tushunishni ham “zernovoy sovxoz” singari ruslashtirib yuborgan. Tepadan tilni ruslashtirish haqida buyruq yo xos ko‘rsatma tushmagan, uning buzilishlari aksariyat holda mafkura bosimining odamlar ongiga ta‘sir o‘tkazishi bilan bog‘liq. Bizga hozir bu o‘z-o‘zicha shunday bo‘lgandek tuyuladi, avom nutqi.

Bizdagi Jomboy (hozir shaharcha) bu yerdan temir yo‘l o‘tgandan beri aholi tilida “Raziz”, bolaligimizda “Jomboy” degan atama aytilmas (nariroqdagi bir manzil

“Eski Jomboy” deyilar) edi, hu temiryo‘l bitta qo‘sh iz vaqtlari poyezdlar bir-biriga yo‘l beradigan bekat, uni, masalan, “Ayirg‘ich” yoki “Ayirma” desa ham bo‘lardi, lekin ruscha “Raz‘ezd” deb atalgan va “Raziz” tarzida omma tiliga singib ketgan. Mustaqillikdan keyin Jomboy atamasi asliga qaytarildi, lekin “Raziz” avom tilidan butkul chiqib ketganicha yo‘q.

Shu shaharchamiz yonidan Katta o‘zbek yo‘li o‘tadi, u bilan qishloqlardan chiqqan yo‘l kesishgan joy ham bolaligimizdan beri jonli tilda “Pirkiroska”. Yo‘l yotqizilgan payti “Perekryostok” degan ko‘rsatgich qo‘yilgan bo‘lsa, shundan qolgan. Jami odam “Pirkiroska” der edi, yaxshi ham bu yerda bozor qurildi-da, joyning asl nomi o‘ziga qaytdi. Hozir “Shayman” yoki “Shaymanbozor” “Pirkiroska” bilan muqobil aytiladi.

Ha, darvoqe, adabiy tildan farqli ravishda jonli so‘zlashuv tilining “avom tili” degan aniq atamasi bor, “avom” bunda omi, jo‘n ma‘nosini emas, balki omma, ko‘plik ma‘nosini beradi. Jonli so‘zlashuv tilining “qora til”, “yalpoq (jalpoq) til” kabi yana lo‘nda istilohlari mavjud.

Tillar aralashuvining juda g‘alati, gohida zavqli holatlariga duch kelasiz. Qishloqda kampirlar uddaburon, bilgich odamni yoqtirmasalar, “Juda xitir odam”, deyдилar: “xitryy, “xityor” so‘zi o‘rischani mutlaqo bilmaydigan kampirlarning tiliga kirib, “ayyor”, “ustomon” kabi so‘zlarning o‘rnida qo‘llanadi. Mana, o‘zingiz qarang: “Ro‘zg‘orda ikanom bo‘lmasa, kapeyka”, “Menga mushayt qilma”, “Ha, kataysa qilib keldingmi?”, “Kelinni padrushka qilib yuribsanmi?”. “Shunaqa palitka qilib ketdi-da” (“ekonomiya”, “kopeyka”, “meshat”, “katatsya”, “politika” so‘zlarining talaffuzda turlanishi)...

Shunaqa istilohlar lug‘atga ham kirib, uning izohi ham beriladi, masalan, «kataysa – kataysa qilmoq. Razg. katatsya; payok – payok, bir haftalik payok; paket – qog‘oz paket, palatka – palatka; palatka qurmoq, palyon – poleno, palitka – razg. politika, maxinatsiya;..

Yana, masalan, “plan” so‘zi o‘zimizda “reja” degan muqobili bo‘lgani holda, sho‘ro davrida, shunday qilsa mahobatli chiqib., tuzumning qudratini urg‘ulab turarmidi, ayniqsa “yetti yillik plan” (hozir uning nimaligini ko‘pchilik bilmaydi, bilganlar eslamaydi), ishqilib, “plan” tarzida tilimizdan o‘rin oldi. “Reja” yo “mo‘ljal” so‘zlarini qo‘llash qoloqlik yo eskilik sarqiti bo‘lib qoldi. Shu ildizdan

“planbozlik”, “planlashtirish”, “planli”, “plansiz”, “plansizlik” kabi sun’iy istilohlar yasalib, ishlatilaverganidan ular ham lug‘atdan joy olgan. Hozir rejaning asl istilohiga qaytdik, lekin “plan” tilimizdan butkul chiqib ketganicha yo‘q. “Banka” so‘zi o‘zga tildan tayyor holicha olib qo‘yilgan, “banka”, “shisha banka”, vassalom! “Banka yopmoq”, “Banka qo‘yish”. Bunaqa istilohlarni sanayversangiz, o‘zingizning ensangiz qotib ketadi – shu qadar ko‘p.

Davrning o‘zgarishlari ham qiziq, ayrim so‘zlar tilimizga kirib, yalpayib o‘rnashib, tomir otib, keyin yo‘qolib-yitib ham ketadi. Endi «batrak» degan so‘z qancha ham ishlatiladi, u ham shu holicha tarjimasiz «batrak». «batraklashmoq», «batraklashtirilmoq», «batraklashtirmoq», «batraklik». «batrachkom» tarzida lug‘atga kiritilgan, xuddi shunday aytilsa, yo‘qsilning o‘tmishda ezilishi urg‘ulanib, sho‘ro g‘oyalari salmog‘i kuchayib qoladigandek. Tasarrufga bir paytlar kirib, ancha muddat ishlatilgan bo‘lsa kerakki, «belat qilmoq» («belit», «proizvodit pobelku»), «belatchi» («malyar», «belilııık») lug‘atdan shu holicha o‘rin olgan. Holbuki, tilimizda “ohaklash”, “ohakchi”, “oqlash”, “oqartish” singari o‘z so‘zlarimiz bor. “Berilmoq”qa misol tarzida «Zakaznoy xat o‘z egasining qo‘liga beriladi» jumlasini keltirilgan, chunki shu “zakaznoy” avom tiliga singib ketgan, “tegishli” yoki “buyurtma” so‘zlari qo‘llanmagan.

Muqobillari bo‘lgani holda ko‘p so‘zlar shu tarzda tasarrufda ko‘p ishlatilgani uchun ancha chuqur joy olib qolgan. “Belat” («bilet»), «kassa», “istansa” (“stansiya”), “vokzal”, “peron” (“perron”), “tavarni” (“tovarnıy”), “passajirski” (“passajirskiy”) singari. Ba’zi so‘zlar bo‘ladi, biron-bir uskuna yoki asbob atamasi sifatida kirib kelgan va shu narsa bilan birga chiqib ketgan. Sho‘ro paytida hamma yoqda shiorlar alvon bo‘lib, “lozinka” (“lozung”) deb aytilar edi. Mustaqillikdan keyin alvon shiorlar bilan birga “lozunka” ham tilimizdan tushib qoldi. Bundan ancha yillar ilgari jamoat naqliyotida (transportida) chipta bilan birga «abonement» keng qo‘llanar, har bir avtobus yo tramvayda bu abonementni belgilash uchun ikki yoki uchtdan teshgich – «komposter» bo‘lar edi. Hozirgi avlodlar ikkalasini ham bilmaydi, binobarin, har ikki so‘z ham faol tasarrufdan tushib qolgan. «Kontrolyor»ning ham qismati shunday kechdi. «Kontrolyor» deganda bekatlarda qo‘liga qizil latta bog‘lab, transportdan tushgan har bir odamning chiptasini tekshirib, «quyon»larni tutadigan barvasta xotinlarni faqat katta yoshdagilar eslaydi, demakki, «quyon» so‘zining chiptasiz yurgan odamga nisbatan ko‘chma

ma'noda ishlatilishi ham hozir o'tmish xotirasiga aylanib qolyapti. G'alati, juda ajablanarli, "naqliyot" o'zimizda ishlatilib kelgani holida "jamoat transporti" deymiz. Transportni "ulov" demaymiz, uni faqat eshakka nisbatan ishlatamiz, go'yo "ulov" desak, g'ildiragi tushib qolib, dum chiqaradigandek, o'zimiz qoloq andiga aylanadigandek.

Til o'zgarishlarini kuzatgan odam sarguzasht asar o'qigandan kam zavq olmaydi. Shahar, qishloq, mahalalarda bundan atigi yigirma yil oldin joy nomlarini qanday bo'lganini bir eslang. Kuni kechagi tarix. Yuzlab, minglab Lenin, Ulyanov, Lunacharskiy, Frunze. Ordjonikidzelar... Yana o'zimizda mahalliy miqyosdagi inqilobchilarimiz ham bor edi. Guliston cho'llarida sho'ro marshallari nima yo'qotgan ekan, ishqilib, har biri bittadan sovxozni nomi tagiga bosib olgan edi. Yuriy Gagarin ham koinotga uchib qaytganidan keyin sho'roning boshqa mintaqalari kabi, jumladan Mirzacho'lga ham muqim o'tirib qolgan. Bizda oftob chiqmaydimi, nur sochmaydimi, unda nimaga yuzlab kolxoz-sovxozlarimiz nomi "Rassvet", "Zarya", "Krasnaya zarya", "Zarya Vostoka" bo'lgan? Mayli, bularni qo'yavering, necha-necha asrlardan beri kelayotgan tarixiy nomlarni o'zgartirishdan mantiq nima? Ularning o'rniga xilma-xil «yangi»lar. «obod»lar yasab tashlanavergan. Hech nom topilmasa, «Yangiqishloq», «Yangiyo'l» deb qo'ya qolishgan. Mamlakatimiz bo'yicha nechta «Mehnatobod» yo «Mehnat-rohat» atamasi bo'lgan ekan? Toponimika bilimdoni Suyun Qorayev bularning sanog'ini keltirib, hayratga solgan edi.

Ba'zan esa so'z yasashda inson aqlining topqirligidan esingiz og'adi: «Nurli quyosh» emish! Qarang, xuddi quyoshning nursizi ham bo'ladigandek. Bizni yoritib turgani o'zi bitta quyosh-ku, osmonda ko'ringan boshqalari yulduz, ahli donolar nurliga aksini qaydan topgan ekanlar. Biz tomonda bir qishloqning otini haligacha «Davlatli turmush» deydilar. Mayda kolxozlar zamonidan shu ot qolib ketgan. Asli oti "To'tixolajon" bo'lgan, Katta bir qishlohimizning oti "Po'shkin", shu nomdagi kolxozdan qolgan, asli atamasi "Xitoybola" deyishadi. Hozir eslab, odam hayron qoladi. «Sotsializm» atamasi eng ko'p ishlatiladigan so'zlardan edi. «Sotsialistik majburiyat», «sotsialistik tuzum». «sotsialistik lager» «sotsialistik mamlakat». Bular tushunarli. Lekin «sotsialistik mehnat»ni qanday tushuntish mumkin? Boshqa tuzumdagilarning mehnati «kapitalistik» yo «imperialistik» bo'ladimi? Keyin yana, yodingizdami, paxtadan yo boshqa narsadan ishlab chiqarish davlat rejasi bajarilsa, undan keyin «sotsialistik plan»ni

bajarish, e-e, ana shunisi sharaflı bo‘lar edi. Uni «majburiy» yoki «qo‘shimcha» reja deb to‘g‘ri aytib qo‘ya qolsa bo‘lmas edimi? Yo‘q edi shekilli-da. Neytral tuzumda yashaydiganlarning mehnatini qanaqa atash kerak edi? Hozir tushga o‘xshaydi: “tuman”, “viloyat” kabi so‘zlarni qo‘llashdan eskilik hidi kelar, O‘zbekistonimizni “mamlakat” deb atash millatchilikning o‘zginasi bo‘lar edi. Chunki mamlakat bitta – boshi keti ko‘rinmaydigan bepoyon Sovet Ittifoqi edi. Hozirgi mustaqil davlatning u paytdagi hududlari qog‘ozda bo‘lsa-da, “mamlakat” emas, “respublika”. “yurt”, “el”, “makon” edi.

Shunaqa, har bir davr, zamonning o‘z so‘zlari, sevimli atamaları bo‘ladi shekilli. Hozirgi yoshlarga «dala malikasi» desangiz, hech birovi bilmaydi, holbuki o‘tgan asrdagi Xrushchev zamonida makkajo‘xorining “qanotli” atamasi shu edi. “Shonli besh yillik»lar, «yetti yillik»lar ham hozirgi yoshlarga lug‘aviy ma’nosidan boshqa tushuncha bermaydi. Bular «shonli» so‘zi bilan birga o‘tkinchi bo‘lib, tarixga cho‘kib ketdi.

Maktab darsligida Volga daryosi bo‘yida yashadigan xalqlarning og‘ir ahvoli aks etgan bir bir rasm bo‘lardı, «Burloqlar» degan. Shuning nimaga “soldov”, soldovchi” istilohi o‘zimizda bo‘la turib, ruschasi (“burlaki”) olingan, badiiy asarlar tarjimasida ham “burloq” tarzida qo‘llanib ketgan, tayinli mantiq topa olmaysiz.

Yana “Raziz” masalasiga qaytib, shu asnoda Jomboy tumani jonli toponimikasini misol qiladigan bo‘lsak, uni til o‘zgarishlari (buzilishi) qomusi deb atash mumkin. Mana, men tug‘ilgan qishloqning juda qadimiy bozorjoyi bor, adashmasam, tumandagi ikki bozorning biri edi, Shu bozorjoyligi tufayli uning G‘azira nomi kolxoz-sovxo‘z bo‘lib, nomlar o‘zgarsa-da, «G‘azira» butkul o‘chib ketmadi. Lekin muvoziy tarzda “Lenin yo‘li”, “Ukraina”, “Bozorov” bilan birga qo‘llandi. G‘aziraning chor-atrofi Istalin, Po‘shkin, Mo‘ltip, Varashilop, Kakanovich, Kalelin, undani keyin Abalin degan qishloqlar ham bor edi. Karil Markis, Engilis, Kamunizim, Oxunboboyip, Maskava, Kirop, Purunza, Partsez – bularning to‘g‘risini yozish shart emasdir.

Tuman xaritasi ustidan misoli mafkura to‘foni hammayoqni g‘orat qilib o‘tganga o‘xshaydi. Lenin, Stalin, Kaganovich. Molotov, Voroshilov, Kuybishev, Frunze, Ulyanov, Oktyabr, Moskva, Kommunizm, Lenin yo‘li, Parts‘ezd, Leningrad...

Hammasi otam zamonidan – bir vaqtlardagi mayda kolxozlardan yodgorlik, bu nomlar rasman o‘chgan, lekin avomda, xususan katta yoshlilar tilida saqlanib qolgan.

To‘qson to‘qqizminchi yili tuman gazetasida saylov uchastkalari ro‘yxatida So‘xmon, Sariqipchoq, Xitoybola, Mitan, Qo‘lbosti, Qozoqovul, Xo‘ja, Tegirmonboshi, Tega, Turkman, Dovcharariq, Sherqo‘rg‘on, Og‘ajon, O‘rdabozor, Go‘zay, Nogahon, Qo‘ziguzar, Archa, Dovchar, Qurmi, Qangli, Qoraxitoy kabi ko‘pini eshtish tushimga ham kirmagan joy nomlarini o‘qib, hayratda qotdim. Shuncha atama sho‘ro qaznoqlarida mog‘or bosib yotaverar, saylov uchastkalarini nomlash uchun jarayon paytidagina oftob yuzini ko‘rar ekan. Bu ham baxtli tasodif, yo bir koraftra bilimdon odam, balki tuman gazetasi zahmatkasht muxbiri yo muharriri shunday kommunist part‘ezdlar zamonida yitmas matoh sifatida asl hoida ro‘yxatlab qo‘ygan, baraka topsin!

Endi o‘zbek tiliga kirib qolgan, bugungacha tasarrufda kelayotgan yot atalmalarning ko‘lami haddin keng: “istansa”, “astanovka”, “uchastka”, “plug”, “lemex”, “atval”, “pritsep”, “barana”, “kultivassa”, “chizil”, “varaqaqachistitel”, “karchopka”, “chikanka”, “svarka”, “montyor”, “montaj” – . shu buzuq so‘zlarning hammasi so‘zlashuv tilimizda bor.

“Botinka”, “tufli”, “saposhka” deb ketdik. Holbuki «boshmoq», «etik», «etikcha» so‘zlari o‘z tilimizda bor. «Paypoq» yoki “jilop” turganida «noski»ning keng ishlatilishiga nima deysiz?

Boshqa tilni mutloq bilmaydigan kampirlar «bekat» yo «manzil» demaydi, masalan, «Falonchi aptabus astanopkada simichka sotadi», deydi (“Semichka”ni “kungaboqar” yo “pista” deb aytishmaydi).

Bizga choy shimol xalqlariga nisbatan ilgariroq kirib kelgan, lekin unga taalluqli ayrim so‘zlar keyin islohga kirib, jonli so‘zlashuvdan ham joy egallagan. Men bolaligimda bir so‘zni eshitib hayron bo‘lar edim: kampirlar nevarasiga: «Magazindan bir ashmishkagina choy ham olib kel», deb tayinlar edi. «Ashmishka» nima ekan? Ko‘p o‘qisam ham kitoblarda o‘qimaganman bu so‘zni. O‘zbekchaga ham, ruschaga ham o‘xshasdi. Keyin bilsam, bu «osmushka» – «vosmushka», yarim yoki nim chorak, sakkizdan birning buzilgani ekan, esingizdami, yaqinlargacha Samarqand choy fabrikasida choy shunaqa yarim

qadoqli, bir qadoqli qog‘oz o‘ramlarda chiqarilar edi. Shuning kichkinasi «ashmishka» ekan. Endi qarang til o‘zgarishlarini: «damlam» yoki «quruq choy» muqobili bo‘lgani holda «zavarka», «objo‘sh», «qaynatma» bo‘lgani holda «kipitok» ham keng qallanadi. Turli millatlar o‘rtasidagi yaqin munosabatlar ularning tillari o‘rtasida kuchli ayirboshlashga olib keladi. Bu hol tarixda turkiy arab, turkiy forsiy yo‘nalishda juda keng tus olgan. Keyingi ikki asrda o‘zbek tili bilan rus tili o‘rtasidagi munosabatlarni ham aytish mumkin. Keyingi uch yuz yillik tarix rus tiliga ham ta‘sir o‘tkazdi. Adabiy jarayon sustlashgani, badiiy asarlar kam yaratilgani yoki san‘at o‘z vazifasi qolib, to‘y-hashamlarda yallachilik, bazmgarlik bilan cheklanib, til vazminchilikka uchraydi, san‘atning tili oldi-qochdi o‘ldim-kuydimga aylanadi...

O‘zga tilning surunkali, uzluksiz ta‘siri ta‘siri tilning asliga o‘zgalashtirishga olib keladi, til ichdan yemirila boshlaydi va bunda, takror aytaman, o‘zimiz sababchimiz, tilni asrashni, uni chet bosqinlardan asrashni o‘ylamasligimiz oqibatlarini ancha yillardan beri odatga aylandi. Shukrki, til jarayoni biryoqlama emas, avom tili o‘zini o‘zi tozalab boradi, lekin o‘zimiz bila turib ifloslantiraversak, bu tozalash ham hayotimiz boricha keyin ketadi.

Sotsialistik tuzum, partiyaning yakkahokim mafkurpasi tugab, tilimizga mustahkam kirib qolgan «obkom», «partkom», «vigovor» «narodniy kontrol», «obixis», «proverka», «sledovatel», «ispolnitel» degan so‘zlar kelgan joyiga ravona bo‘layotir. qaytib chiqib ketayotir. Hozirga kelib, masalan, «sotsial xavfli unsur» – «sotsialno-opasnyy element», «burjuaziya malayi»- «prispeshnik burjuazii» kabi hukmdak aytiladigan iboralar ishlatilmaydi.

Til ham bir mudom o‘sadigan daraxt, uni parvarishlash kerak, qaramasangiz, qiyshiq o‘sadi, g‘ovlab ketadi, bachki novdalarni ko‘payadi. U ham sarishtalik so‘raydigan ro‘zg‘or, pokiza qilib turmasangiz, ivirsiq bosadi, isliqib, patarot topishi bor gap.

Shunchaki bir misol: «beshkokil» nima desangiz, kamdan kam odam bilsa kerak, chunki qizlarning sochini bunaqa o‘rish faqat lug‘atda qolgan. So‘z boyliklaridan ishlatilmagani uchun yitib ketayotgani qancha!

Lug‘at, tabiiyki, so‘zlashuv jarayonida tasarruf etilayotgan so‘zlarni aks ettiradi. Masalan, o‘zbekcha-ruscha lug‘atlar til o‘rganuvchilarga mo‘ljallanadi, biz qanday

gapirsak, tilimizda qanday soʻzlarni qoʻllasak, rus tili orqali oʻzbek tilini oʻrganmoqchi boʻlgan odam bularning hammasini shunday oʻzlashtiradi. Albatta, jiddiy olimlarimiz, tilshunoslarga reklamadan misol keltirsangiz shundan boshqa gap yoʻqmi degan maʼnoda ensalari qotadi, lekin reklama shunaqa surbet narsaki, har kuni oʻnlarcha marta takrorlanadi, yaʼni tomoshabin miyasiga mixlanaveradi. Yaʼni tasarrufga kiraveradi. quloq notoʻgʻri iboraga oʻrgangandan keyin, toʻgʻri soʻz talaffuzi qoloqlik boʻlib tuyuladi. Tilchilarimiz keyin bunga til hodisasi sifatida qaraydilar. (shevadan gapirishni bir olim shunaqa oqim paydo boʻldi, dedi).

Oʻnlab misol keltirish mumkin. Chiqib ketgan, tushib qolayotgan soʻzlar oʻrniga yangi-yangi begona atamalar kirib, tilimizning ifloslanish jarayoni toʻxtamayotir. Oʻzimiz har kuni tasarruf qiladigan tanish soʻzlarning juda koʻp notanish maʼnolarini topib, hayratga tushaman. Kundalik tasarrufda juda koʻp soʻzlarni ishlatamiz, koʻpincha uning kelib chiqishiga eʼtibor bermaymiz. Mana, «boqish», «boqmoq» soʻzimni oling. qancha maʼnosi bor.

Ilgari ijodkorlar, shoirmi, yozuvchimi, baxshimi, tilni xalqdan, xalq orasida yurib oʻrgangan, boshqa qayoqqa ham borsin edi Bu gap ilgari «ular havodan nafas olgan» deganga oʻxshaydi. Hozir esa matbuot, xususan radio-TV, ayniqsa televideniya oʻrganadi. TVning til havosi esa juda buzuq. Yoʻq, bugunga kelib tilga eʼtiborning susaygani yo, hozir koʻp aytiladiganidek, faqat shevachilikdan biliqsib ketayotganida emas, oʻzi TVning xarakteri shunday – undagi til – issiqxona tili, quritilgan, tozalangan, qaychilangan, qanoti, panjasi qirqilib, mana nihoyat qush qilingan til, xullas sunʼiy til. Til jozibasi TVda yoʻq. Lekin boshqa oʻrgatuvchi ham yoʻq: kitoblarning tiraji past, rasmiy matbuot nashrlari adadi juda kam, kattaroq tirajda chiqayotgan xususiy gazetalarning oʻziga til madaniyati yetib bormagan. Tuman muxbirlar lashkari “Mulla bilganini oʻqiydi”ga amal qilib, ogʻizlari kelganini gapirib, yozib yotibdilar. Hay, insof bormi, sizlar ham bir narsanii oʻqiganmisizlar, deb soʻraydigan odam yoʻq. Yasama soʻzlar, gʻaliz iboralar gʻij-bij achib yotibdi, ularni bittalab sanab chiqishga umr yetmaydi. Baʼzan endi foydasi yoʻqmikan, shunday ketaveradimi, deb koʻngling choʻkib ketadi. Keng tarqalgan nodonlik joriy donolik boʻlib qolyapti. Bu jarayon hozir ham davom etayotir, nafaqat davomda, balki oʻsishda pastlab ketyapti.

Hali gaplashamiz bu mavzuda. Gaplashganimizning foydasi yo‘qdir endi, lekin bir fikr olishaylik, zora,..

(birinchi qism tugadi)

2013 y.